

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



«TASDIQLAYMAN»  
O'quv ishlar bo'yicha  
profektor I.Q. Xaydarov

2019-yil

PEDAGOGIK MAHORAT

ISCHI O'QUV DASTURI

3-kurs

(maxsus sirtqi)

Bilim sohasi	100000 -	Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 -	Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111700 -	Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish

	Jami:	5-semestr
1 Nazariy	10	10
2 Amaliy	14	14
3 Mustaqil ta'lim	442	442
4 Jami auditoriya soatlari	24	24
5 Umumiy o'quv soati	466	466

Chirchiq – 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil " " dagi -sonli buyrug'ining - ilovasi bilan tasdiqlangan "Pedagogik mahorat" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti kengashining 2019-yil «24» 08 dagi, 1 - sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.

#### Tuzuvchilar:

**A.K. Karimjonov** – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasida dotsenti.

**F.I. Ochilov** – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi.

#### Taqrizchilar:

**Sh.Q. Mardonov** – p.f.d. Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti professori.

**X.J. Xudoyqulov** – p.f.d. O'ZMU professori.

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti kengashining 2019-yil «26» 08 dagi 1 - sonli majlisida muhokamadan o'tkazilgan.

**Fakultet dekani** p.f.d. prof. Sh.Q. Mardonov

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasining 2019-yil «24» 08 dagi 1 - sonli majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.

**Kafedra mudiri** A.A. Abdullayev

#### I. O'quv fanining dolzarbligi oliy kasbiy ta'limdagi o'rni.

Ushbu dastur 5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, "Pedagogik mahorat" fanining dasturida talabalar o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rganadilar. Ushbu fan doirasida talaba o'qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

#### II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar asosida o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, printsiplarini ijodiy qo'llash, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi shart. Bakalavrlarni pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariyasi hamda amaliyoti bo'yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlash pedagogik mahorat fanining asosiy maqsadlaridan biridir. Chunki, hozirgi zamon o'qituvchisi, avvalo hayotimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning asosiy mohiyatini anglashi va har tomonlama yetuk, chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis, Vatani va xalqiga sodiq, kasbiy mahorat va layoqatga ega bo'lgan shaxs bo'lishi zarur.

#### Fanning vazifalari:

- ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanish va islohotlarni insonparvarlik va demokratik tamoyillarga moslab olib borish;
- ta'lim mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbolligidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda boyitib borishni ta'minlash;
- bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan dunyoqarashini rivojlantirishda milliy urf-odat va an'analarimizdan, boy adabiy merosimizdan samarali foydalanishning tekzor metod va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta'lim va tarbiya jarayonini kelgusida o'qituvchilardan talab qiladigan darajada sifatini va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlash uchun normativ hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar, moddiy-texnika va axborot bazasi bilan boyitib borish;
- bo'lajak o'qituvchilarning yuksak kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilimi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirib borish;
- bo'lajak o'qituvchilarni yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarishga o'rgatish.

“Pedagogik mahorat” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **Bakalavr**:

- o‘qituvchi shaxsi va uning jamiyatda tutgan o‘rnini bilishi;
- barkamol avlodni ma‘naviy va ma‘rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg‘onish mafkurasining hamda umuminsoniy qadriyatlarining mohiyatini;
- yoshlarni mamlakatimizning mustaqillik g‘oyalariга sadoqatli, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashi, o‘z Vataniга, tabiatga va oilasiga bo‘lgan mehr muxababati;
- o‘quvchilarni seva olishi, o‘z mehrini, his-tuyg‘ularini har lahzada o‘quvchilar ichki dunyosi bilan bog‘lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo‘lishni;
- jamiyatning ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asl mohiyatini chuqur anglab yetish va ularga xolisona baho berib, bu borada to‘g‘ri, asosli ma‘lumotlarni doimiy bilishi hamda yosh avlod ongiga singdirishni;
- ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalar haqidagi eng so‘nggi yangiliklardan va yutuqlardan muntazam xabardor bo‘lib borishni;
- o‘quvchilarning yoshi va ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishni bilishi;
- o‘z pedagogik mahoratini muntazam oshirib borishda pedagogik refleksiya qonuniyatlariga muntazam rioya qilishni;
- o‘qituvchining pedagogik qobiliyati to‘g‘risida mukammal ma‘lumotga ega bo‘lishi;
- bo‘lajak o‘qituvchining muloqot madaniyati va psixologiyasini muntazam o‘rganib borishni;
- kasbga oid bilimlarni o‘rganish jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqat, pedagogik texnika (nutq, chehra, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, pedagogik takt) qoidalarini mukammal o‘zlashtirib borishga doir tushunchalarni **bilishi kerak**.

Ushbu vazifalarning hal etilishi bo‘lajak o‘qituvchilar va tarbiyachilarni zamon bilan hamnafas bo‘lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko‘ra olishga o‘rgatadi. Har bir o‘qituvchi mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o‘z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solib, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish uchun:

- o‘qituvchining kiyinish madaniyati o‘ziga xos bo‘lishi, ya‘ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklardan foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangiga muvofiq ravishda kiyinish;
- o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va puxta bilimga ega bo‘lgan holda, barcha fanlar integratsiyasini o‘zlashtirib borish, bunda o‘z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borish;
- pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini muntazam o‘rganish;

- kasbiy pedagogik faoliyatda ta‘lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatlarini o‘rganish;
- bo‘lajak o‘qituvchi mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni yolg‘iz o‘zi bartaraf etishning uddasidan chiqa olish;
- eng avvalo mas‘uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma‘rifat targ‘ibotchisi bo‘lish;

- pedagogik dilkashlik (mantiq, nutq madaniyati unsurlaridan ta‘lim va tarbiyaviy jarayonda unumli foydalana olish) va pedagogik takti egallash;

- o‘z kasbi bo‘yicha jahon fanida erishilayotgan so‘nggi yutuqlar, tarbiya texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyalari yangiliklaridan doimiy xabardor bo‘lib borish;

- ilg‘or o‘qituvchi-ustozlar tajribalaridan unumli foydalanib, o‘z pedagogik faoliyatiga singdirish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak**.

O‘qituvchining mahorati pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida bilim va malakalarni egallash davridayoq, shakllanib boradi. Kasbga oid malakalarni egallash, pedagogik kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirishda va qayta tayyorlash tizimida, tanlangan kasb ichida uzluksiz taraqqiyotga moslasha olishida, keng ma‘nodagi yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan, pedagogik-psixologik bilimlarni mukammal egallagan o‘qituvchini shakllantirish uchun:

- XXI asr o‘qituvchisiga qo‘yiladigan asosiy talablar mohiyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish;

- pedagogik nazokat va odob-axloq me‘yorlariga rioya qilishni o‘rganish;
- kasbiy faoliyatida pedagogik texnika va uni shakllantirish usullarini rivojlantirish;

- ta‘lim va tarbiya jarayonida tanlangan metod va texnologiyalarni joriy qilishda muhimti, vaziyatni to‘g‘ri baholay olish;

- o‘z mehnatini rasmiy, ilmiy va ijodiy jihatdan to‘g‘ri tashkil eta olish, ya‘ni vaqtdan unumli foydalanishni bilish;

- bo‘lajak o‘qituvchi nutq madaniyatiga xos ijobiy jihatlarini egallab borish, nutqi quyidagi xususiyatlarini o‘zida aks ettirishi: turli sheva so‘zlardan holi bo‘lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi, nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi, hikmatli so‘zlar, ibora va maqollar, matalar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli foydalana olishi va nutqi norasmiy so‘zlardan holi bo‘lishi;

- yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi, maktab gigienasi kabi fanlardan o‘z kasbga oid bilimlarni mukammal bilish;

- o‘z kasbga ijodiy yondashish, ta‘lim-tarbiya metodikasi bo‘yicha bilimlarini muntazam oshirib borish **malakalariga ega bo‘lishi kerak**.

### III. Ma‘ruza mashg‘ulotlari.

Ma‘ruza mashg‘ulotlari multimediy qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlarda o‘tiladi.

№	Ma'ruza mavzulari	Ajratilgan soat
<b>5-semestr</b>		
1	Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi kasbiy faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati.	2
2	O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik qobiliyat va uning turlari.	2
3	Kasbiy pedagogik muloqot. O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnika va takt.	2
4	O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik nazokat va odob-axloq.	2
5	O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish.	2
<b>Jami:</b>		<b>10 soat</b>

Pedagogik mahorat fanini o'tishda muammoli ma'ruzalar, ko'rgazmali ma'ruzalardan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi

#### IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Fan bo'yicha rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar davomida nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Amaliy mashg'ulotlarda tadbirlar keng qo'llanilayotgan asosiy usullarni o'rgatishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Ma'lum sabablariga ko'ra ma'ruza kirmagan va murakkab bo'lgan tushunchalarni amaliy mashg'ulotlarda ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik taomiyllarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlarda nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Ajratilgan soat
<b>5-semestr</b>		
1	Pedagogik mahorat fani haqida tushuncha. Fanning asosiy vazifalari va tarkibiy qismlari.	2
2	O'qituvchi pedagogik qobiliyatining asosiy sifatleri va yetakchi xususiyatlari.	2
3	Pedagogik muloqot – o'qituvchining ijodiy faoliyatini va tashabbuskorligini namoyon etuvchi xususiyat.	2
4	Pedagogik nazokat va uning axoqiy fazilati.	2
5	Hozirgi kunda o'qituvchi tarbiyachilik mahoratining asosiy mohiyati.	2

6	O'qituvchidagi pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.	2
7	Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning boshlang'ich yo'nalishlari.	2
<b>Jami:</b>		<b>14 soat</b>

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruha alohida o'tiladi. Amaliy mashg'ulot mavzulari faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimediya qurilmalari yordamida o'tkaziladi.

#### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Bakalavr talabasi mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; masofaviy ta'lim.

Bakalavr talabaga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.

Mustaqil ismi tashkil etishda unga mo'ljallangan har bir bo'lim bo'yicha adabiyotlar talaba tomonidan o'rganilishi, mustaqil ish uchun mo'ljallangan nazariy va amaliy bilim mavzularini o'zlashtirish, har bir bo'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarning mos varianti talaba tomonidan bajarilishi, Powerpoint, Maple dasturlaridan foydalanib, ularni prezentatsiya ko'rinishida tayyorlab topshirishi talab qilinadi. Jarayon o'qituvchi tomonidan uzluksiz nazorat qilinadi.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Ajratilgan soat
1	Sharq allomalarining asarlarida ta'lim-tarbiya haqidagi ilg'or pedagogik fikrlar.	8
2	Hozirgi kunda o'qituvchilar pedagogik qobiliyatini shakllantirish imkoniyatlari.	8
3	O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar.	8
4	Yosh o'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirishda muloqot madaniyatining roli.	8
5	Demokratik jamiyatda o'qituvchi va o'quvchi munosabatida erkinlik tushunchasi.	8
6	Pedagogik nizolar va ziddiyatlarning falsafiy, pedagogik-psixologik tasnifi.	8

7	Yosh o'qituvchilarning xushmuomalaligi, nazokati va pedagogik takti.	8
8	Hozirgi kunda o'qituvchi nutq texnikasi va notiqlik madaniyatini takomillashtirish muammolari.	8
9	Barkamol avlod tarbiyasida o'qituvchining tarbiyaviy maqsadlarni pedagogik mahorat asosida to'g'ri tanlay olishi.	8
10	O'qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida pedagogik mahoratini oshirib borishi.	8
11	Pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi.	6
12	O'qituvchining kasbiy faoliyatida pedagogik-psixologik mahorat.	6
13	Hozirgi zamon o'qituvchisi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish muammolari.	6
14	Pedagogik mahorat fani haqida tushuncha. Fanning asosiy vazifalari va tarkibiy qismlari.	6
15	Pedagogik fikr taraqqiyotida o'qituvchining kasbiy mahorati hamda burch va mas'uliyatlari.	6
16	O'qituvchi pedagogik qobiliyatining asosiy sifatleri va yetakchi xususiyatlari.	6
17	O'qituvchining tashkilotchilik qobiliyati va uning ta'lim jarayonidagi o'rni.	6
18	Pedagogik muloqot - o'qituvchining ijodiy faoliyatini va tashabbuskorligini namoyon etuvchi xususiyat.	6
19	O'qituvchi kasbiy faoliyatini rivojlantirishda muloqot madaniyatining o'rni.	6
20	Pedagogik faoliyatda umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi.	6
21	O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida jonli muloqotni tashkil etish.	6
22	Pedagogik texnika va murabbiylik xususiyatlari.	6
23	Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati. O'qituvchi nutqining to'g'riligi, ravonligi, aniqligi va ta'sirchanligini oshirish.	6
24	O'qituvchilik kasbiga qo'yiladigan asosiy talablar.	6
25	Hozirgi kunda o'qituvchi tarbiyachilik mahoratining asosiy mohiyati.	6
26	O'qituvchining tarbiya texnologiyalarini qo'llashda pedagogik mahoratning ahamiyati.	6
27	Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash diagnostikasi. Tarbiya ko'rganlikni aniqlash.	6
28	O'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish.	6
29	Kompyuter texnologiyalari yordamida o'qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirib borish.	6
30	Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning boshlang'ich yo'nalishlari.	6
31	Yosh o'qituvchilar kasbiy mahoratini takomillashtirishda	6

	pedagogik refleksiyaning ahamiyati.	
32	O'qituvchining pedagogik texnikasini takomillashtirishda hozirgi zamon talablari.	6
33	O'qituvchi faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning xususiyatlari.	6
34	O'qituvchining umumiy madaniy saviyasi va qobiliyati.	6
35	O'qituvchilik faoliyatining tizimi, kasbiy mahorati.	6
36	Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar.	6
37	O'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi yo'nalishlari	6
38	Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati va uning ijodkorligi.	6
39	Ta'lim mazmunini belgilovchi kasbiy faoliyat sifatlarining o'qituvchi ijodkorligida namoyon bo'lishi.	6
40	O'qituvchi pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish funktsiyalari.	6
41	Pedagogik qobiliyatning tayanch, yetakchi va yordamchi xususiyatlari.	6
42	Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari.	6
43	Tarbiya jarayonida kommunikativ munosabatning o'ziga xos qoidalari.	6
44	O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot jarayonini boshqarish usullari.	6
45	Pedagogik takt - o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi.	6
46	Pedagogik texnikani egallashning asosiy usullari.	6
47	Pedagogik-tashkilotchilik faoliyatining mohiyati.	6
48	O'qituvchi bilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy jarayonning asosiy xususiyatlari.	6
49	Tarbiyaviy jarayon va tarbiya mazmunini modeldashirish.	6
50	Pedagogik mahorat tarkibiy tuzilishida axborot madaniyatini oshirish omillari.	6
51	Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda tashkil etilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kasbiy mahorat komponentlari.	6
52	Pedagogik faoliyatda o'qituvchi mehnati evaziga shakllanib boruvchi umumshahar qadriyatlar.	6
53	O'qituvchi mehnatini nazorat qilish va hisobga olishning izchilligi.	6
54	Pedagogik nazokat me'yorlari va omillari.	6
55	Pedagogik texnikani namoyon etishda o'qituvchining tashqi ko'rinishi.	6
56	O'qituvchining tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi jarayonlar.	6
57	O'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmuni ijtimoiy-tarixiy rivoji va mazkur kasbning jamiyatda tutgan o'rni.	6
58	Pedagogik faoliyatlar tizimi.	6
59	O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari.	6
60	O'qituvchining pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur	6

	bo'lgan qobiliyatlar tizimi.	
61	Qobiliyatning pedagogik-psixologik tavsifi.	6
62	O'qituvchi intellektining asosiy sifatleri va xususiyatlari.	6
63	Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatleri.	6
64	O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish uslublari.	6
65	O'qituvchining pedagogik muloqoti ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligi, uning funktsiyalari.	6
66	Pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalarida o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti printsiplari.	6
67	O'qituvchi pedagogik muloqotining shakllari.	6
68	Pedagogik nazokat o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi.	6
69	O'qituvchining nutq madaniyati va unga xos bo'lgan vositalar.	6
70	Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar mazmuni va uning fazilatleri, vazifasi, burchi, mas'uliyatlari.	8
	<b>Jami:</b>	<b>442 soat</b>

#### VI. "Pedagogik mahorat" fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

"Pedagogik mahorat" fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN) – talabalar fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;
  - oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan bo'limi tugallangandan keyin talabalar nazarini bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
  - yakuniy nazorat (YaN) - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarining talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralariga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.
- ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan monitoring va ichki nazorat bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YaN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda YaN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YaN qayta o'tkaziladi.

Talabalarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabalar fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalangan.

Fan bo'yicha talabalarining semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi, shundan: Ya.N.-30 ball, J.N.-70 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarining bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yuritish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

• Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabalarining saralash ballidan past bo'lgan o'zlashtirish reyting daftrachasida qayd etilmaydi.

• Talabalarining o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

• Talabalarining fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:  $R = V * O / 100$ , bu yerda: V – semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

• Talabalarining semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalariga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

• ON va YaN turlari kalendar tematik rejaiga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YaN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

• JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turiga, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratga bo'lgan muddat beriladi.

- Talabanning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr davomida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilining vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) nafardan kam bo'lmagan tarkibda appelyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Appelyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rtaligan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda monitoring va ichki nazorat bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "Test" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

№	Ko'rsatkichlar	YaN ballari	
		maksimal ball	o'zgarish oraliq'i
1.	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	30	0-30
2.	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	30	0-30
	<b>Jami</b>	<b>30</b>	<b>0-30</b>

#### Yakuniy nazoratni "Yozma ish" asosida o'tkazish MEZONI

Talabalar fandan yakuniy nazoratni test topshiriqlari yoki "Yozma ish" usulida topshiradilar va ularni o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi. Agar yakuniy nazorat "Yozma ish" usulida amalga oshirilsa, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda mavzular yuzasidan beshadan savol bo'lib, har bir savolga tegishli javoblar yoziladi. Har bir savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-6 ball oraliq'ida baholanadi. Berilgan har bir savolga talaba tomonidan fanning nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri va to'liq yoritilsa, fan doirasida mustaqil fikrga ega bo'lsa va uni yozma shaklda bayon eta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o'zlashtirish umumiy ko'rsatkichi 0-6 ball bilan baholanadi.

Berilgan har bir savolga javob yozilmasa, noto'g'ri javob yozilsa yoki o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirib yozilsa, amaliy topshiriq shartida belgilangan amallar bajarilmasa, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar aniqlanmasa, xulosa yozilmasa o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-1 ball bilan baholanadi.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

#### Yakuniy nazoratni "Test topshiriqlari" asosida o'tkazish MEZONI

Agar yakuniy nazorat "Test topshiriqlari" asosida amalga oshirilsa, sinov ko'p variantli usulda kompyuter sinflarida o'tkaziladi. Har bir variantda 30 tadan test topshirig'i bo'lib, talabaga savollarning javobini belgilash uchun 30 daqiq vaqt beriladi. Har bir test topshirig'iga talaba tomonidan berilgan javoblar 1 ball bilan baholanadi.

#### «Pedagogik mahorat» fanidan reyting ishlanma va BAHOLASH MEZONI Joriy nazorat

№	Nazorat turlari	Jami ball	Nazoratning shakli	Ball
1.	Joriy nazorat	7 ball 5x7 = 35 ball	Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va uni himoya qilish	35 ball

**Izoh:** A'lo baho (86-100%)=30-35 ballgacha.  
Yaxshi baho (71-85 %)=25-29 ballgacha.  
O'rta baho (55-70%) =19-24 ballgacha.

#### Oraliq nazorat

№	Nazorat turlari	Jami ball	Nazoratning shakli	Ball
1.	Oraliq nazorat	8 ball (3x8=24)	Yozma	24 ball
2.	Mustaqil ta'lim	11	Mustaqil ish	11
	<b>Jami:</b>	<b>35</b>		<b>35</b>

#### Izoh (Oraliq nazorat):

A'lo baho (86-100%)=21-24 ballgacha. A'lo baho (86-100%)=10-11 ballgacha.  
Yaxshi baho (71-85 %)=17-20 ballgacha. Yaxshi baho (71-85 %)=8-9 ballgacha.  
O'rta baho (55-70%) =13-16 ballgacha. O'rta baho (55-70%) =6-7 ballgacha.

#### Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha (Yakuniy baholash)

№	Baholash turi	O'tkazish shakli	Bajarish mexanizmi	Talaba to'playdigan ball	Bajarish vaqti
1	YaN	Test, yozma	5 ta savoldan iborat variantlarga javob yozish. (5x6=30 ball)	30 ball. Har bir savolga to'g'ri javob uchun 6 ballidan 5x6=30 ball	Belgilangan reja asosida.

**Izoh:** A'lo baho (86-100 %)= 26-30 ballgacha.

Yaxshi baho (71-85 %) = 21-25 ballgacha.

O'rta baho (55-70 %) = 16-20 ballgacha.

1. Amaliy mashg'ulotda qatnashib undagi topshiriqlarni to'la, sifatli bajarigan talabaga 4,3-5 ball beriladi, agar to'la bo'lmasa, bajarish darajasiga qarab, 2,7-3,4

ballgacha beriladi. Seminar mashg'ulotidagi vazifalar bo'yicha berilgan talabalar mustaqil ishlarining bajarilish hajmi va sifatiga qarab, 2,7 dan 5 ballgacha berilishi mumkin (topshiriqlar to'liq va sifatli, ijodiy tarzda bajarilgan – 4,3-5 ball, sifatli va me'yor talablari darajasida – 3,5-4,2 ball, o'rtta darajada – 2,7-3,4 ball).

2. Talabanning mustaqil ishi, berilgan mavzu bo'yicha mustaqil ish tayyorlanadi:

- referatda mavzu to'liq ochildigan, to'g'ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo'lsa, 9-10 ball.

- mavzu mohiyati ochildigan, faqat xulosasi bor 7-8 ball.

- mavzu mohiyati yoritilgan, ammo ayrim kamchiliklari bor bo'lsa, 5-6 ball.

3. Yakuniy baholashda talaba 5 ta savolga yozma yoki 30 ta test savoliga 1 javob berishi lozim. Har bir yozma savolga 6 ball ajratiladi. Har bir test savoliga 1 balдан 30\*1=30 ball beriladi.

- agar savol mohiyati to'la ochildigan bo'lib, mavzu bo'yicha talabanning tankidiy nuktai nazari bayon qilingan bo'lsa 5,2-6 ball.

- savolning mohiyati to'la ochildigan, asosiy faktlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa, 4,3 – 5,1 ball.

- savolga to'g'ri javob berilgan, lekin ayrim kamchiliklari ko'proq bo'lsa, 3,3 – 4,2 ball.

## VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.

### Asosiy adabiyotlar.

1. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools.
2. Michael Uijens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model.
3. Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008y.
4. John Dewey, How we think (1910). Martin, Jay. The Education of John Dewey. (2003) Columbia University Press. Gutek Gerald L. (2009) New Perspectives on Philosophy and education. Pearson Education Inc.
5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: "Iqtisod-moliya", 2010–312 b.
6. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2011. – 425 b.
7. R.A. Mavlonova, D. Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya. 2012-yil.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.

3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son, 70-moddada.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.

5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // Ped. fanlari dokt. ilmiy dar. uchun diss. – T.: 2007. – 305 b.

6. Djumaeva S. Ijtimoiy va pedagogik nizolar: mohiyati va bartaraf etish yo'llari. // Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 82 b.

7. Mahmudov N. M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.

8. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 192 b.

9. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. – T.: "Dono hamro" ilmiy markazi, 2002. – 78 b.

### Internet saytlari:

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-INTRANET.Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)